

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MUHITGA
MOSLASHTIRISHNING ILMIY VA PEDAGOGIK TA’MOILLARI**

Bekberdiyeva Gulbahor Ortiqaliyevna

University of Business and Science Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o‘qituvchisi gulbahorbekberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy muhitga moslashtirish jarayonining ilmiy va pedagogik tamoyillarini tahlil qilinadi. Maqola da kasbiy moslashuvining ahamiyati, uning o‘qituvchi malakasini oshirishdagi roli va o‘quv jarayonida samarali ishslash uchun zarur bo‘lgan psixologik, pedagogik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy muhitga moslashtirishda pedagogik tamoyillarning ahamiyati va amaliyotdagi qo‘llanilishi ta’riflanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy moslashuv, ilmiy tamoyillar, pedagogik tamoyillar, kasbiy ko‘nikmalar, o‘quv jarayoni, psixologik ko‘nikmalar.

**ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ:
НАУЧНЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ**

Бекбердиева Гулбахор Ортигалиевна,

преподаватель негосударственного вқсшево учебного заведения

“Университет бизнеса и науки”

Аннотация: данной статье анализируются научные и педагогические принципы процесса адаптации будущих учителей к профессиональной среде. Рассматриваются важность профессиональной адаптации, ее роль в повышении квалификации учителей, а также методы формирования необходимых психологических, педагогических и социальных навыков для эффективной работы в образовательном процессе. Также определяется значение педагогических принципов при адаптации будущих учителей и их применение на практике.

Ключевые слова: будущие учителя, профессиональная адаптация, научные принципы, педагогические принципы, профессиональные навыки, образовательный процесс, психологические навыки.

**PROFESSIONAL ADAPTATION OF FUTURE
TEACHERS, SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL PRINCIPLES**

Bekberdiyeva Gulbakhor Ortigaliyevna,

*Teacher of the University of Business and Science non-state higher
education institution*

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical principles of the process of adapting future teachers to the professional environment. It examines the importance of professional adaptation, its role in improving teacher qualifications, and methods for developing the necessary psychological, pedagogical, and social skills for effective performance in the educational process. The article also defines the significance of pedagogical principles in the adaptation of future teachers and their application in practice.

Keywords: future teachers, professional adaptation, scientific principles, pedagogical principles, professional skills, educational process, psychological skills.


Ta'lim tizimi har doim jamiyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Yangi avlodning ta'limi esa, o'z navbatida, yuqori malakali pedagoglarning tayyorlanishi va ularning kasbiy faoliyatga moslashuvi bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muhitga moslashishi, pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beradigan, ilmiy va pedagogik tamoyillarga asoslangan bir jarayon sifatida ajralib turadi.

Kasbiy muhitga moslashuv jarayoni, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muhitga moslashuvi – bu o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatiga mos ravishda psixologik, pedagogik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon, o'z navbatida, o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim berish, darsni tashkil qilish, o'quv jarayonini boshqarish, o'z-o'zini takomillashtirish kabi ko'plab qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik jarayonlarning turli jihatlarini birlashtirib, muvofiqlashtirib ishlashi lozim. Bu tamoyil o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim berishda ilmiy bilimlar bilan bir qatorda, pedagogik yondoshuvlarni ham birlashtirishni talab qiladi. Kasbiy muhitga moslashuv jarayonida o'qituvchining ijtimoiy va psixologik ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi. Pedagogning o'zaro munosabatlar, stressni boshqarish va o'quvchilar

bilan samarali muloqot qilish kabi qobiliyatlari kasbiy muvaffaqiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar va tajribalar asosida o‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini uzviy ravishda mustahkamlashlari zarur. Bu, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining sifatini yaxshilashga yordam beradi va pedagogning malakasini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati ta'limgarjarayonida o‘quvchilarga ta'limgarberishdan tashqari, ularning psixologik holatini ham inobatga olishni nazarda tutadi. O‘qituvchi o‘z kasbiy muhitiga moslashishda nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va muallim sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Har bir o‘qituvchi o‘zining ish joyidagi ijtimoiy va pedagogik muhitga moslashish uchun turli pedagogik yondoshuvlar va metodlarni o‘rganishi kerak. O‘qituvchi o‘z faoliyatini shunday tashkil qilishi kerakki, u o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda ta'limgarjarayonini davom ettira olsin. O‘qituvchining o‘z kasbiy malakasini oshirish va yangi pedagogik yondoshuvlar bilan tanishishi uning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Bu tamoyil o‘qituvchining o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.



Pedagogik tamoyillar

Ta'lim tizimi va o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda, kasbiy muhitga moslashuv jarayonini yaxshi tashkil etish uchun ilmiy asoslangan metodikalar va pedagogik tamoyillarni joriy etish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchilarga amaliy tajriba orttirish va ularning kasbiy muhitga moslashuvini ta'minlash uchun treninglar va seminarlarga qatnashish muhimdir. Ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishda, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lishida, ularning psixologik holatini tushunish va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyati kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ayta olamiz. Yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Bu pedagogik innovatsiyalar o‘qituvchiga yangi o‘quv metodlarini qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy muhitga moslashtirish ilmiy va pedagogik tamoyillarni chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash orqali amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy muhitga moslashuv jarayonini samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan tamoyillar va amaliy usullarni joriy etish zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlashda ijtimoiy, psixologik va pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish muhimdir. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekberdiyeva Gulbahor. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK YONDASHUV. Maqola Namangan davlat pedagogika instituti “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37 99-102 betlar.
2. A.A.Ibragimov. Pedagogning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. –Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.